



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI



VOL.3 № 3

2026

O'QUVCHI-YOSHLARNING MAFKURAVIY IMMUNITETINI MUSTAHKAMLASH – GLOBAL PEDAGOGIK KONVERGENSIYA OBYEKTI SIFATIDA

Jumanov Sherzod Saloyevich

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti Samarqand filiali, v.b. dotsent, PhD

Annotatsiya

Respublikamizning Konstitutsiya va qonunlarida O'zbekiston dunyoviy, huquqiy, suveren, demokratik, ijtimoiy davlat ekanligi mustahkamlab qo'yilgan. Bu esa globallashtirilgan jamiyatda ijtimoiy pedagogika nuqtayi nazaridan tarbiyaviy islohotlarning yangi ijtimoiy omillarining tasnifini ishlab chiqish va o'quvchilarni mafkuraviy himoya qilishning modernizatsiyalangan makrotizimini ifodalashni talab qiladi. Maqolada umumta'lim maktablaridagi mafkuraviy profilaktika va mafkuraviy immunitetning mazmuni haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: bilim, immunitet, mafkuraviy immunitet, qadriyatlar tizimi, maqsadlar tizimi, raqamli pedagogika.

ПЕДАГОГИЧЕСКОЕ ВОСПИТАНИЕ УКРЕПЛЕНИЕ ИДЕОЛОГИЧЕСКОГО ИММУНИТЕТА СТУДЕНТОВ КАК ОБЪЕКТ ГЛОБАЛЬНОЙ ПЕДАГОГИЧЕСКОЙ КОНВЕРГЕНЦИИ

Жуманов Шерзод Салоевич

Самаркандский филиал Международного университета Кимё в Ташкенте, и.о. доцента,
PhD

Аннотация

Конституция и законы нашей Республики устанавливают, что Узбекистан является светским, правовым, суверенным, демократическим, социальным государством. Это требует разработки классификации новых социальных факторов образовательных реформ с точки зрения социальной педагогики в глобализованном обществе и выражения модернизированной макросистемы идеологической защиты учащихся. В статье рассматривается содержание идеологической профилактики и идеологического иммунитета в средних школах.

Ключевые слова: знание, иммунитет, идеологический иммунитет, система ценностей, система целей, цифровая педагогика.

PEDAGOGY STRENGTHENING THE IDEOLOGICAL IMMUNITY OF YOUTH STUDENTS AS AN OBJECT OF GLOBAL PEDAGOGICAL CONVERGENCE

Jumanov Sherzod Saloyevich

Samarkand Branch of Kimyo International University in Tashkent, Acting Associate Professor,
PhD

Abstract

The Constitution and laws of our Republic establish that Uzbekistan is a secular, legal, sovereign, democratic, social state. This requires the development of a classification of new social factors of educational reforms from the point of view of social pedagogy in a globalized society and the expression of a modernized macrosystem of ideological protection of students. The article discusses the content of ideological prevention and ideological immunity in secondary schools.

Keywords: knowledge, immunity, ideological immunity, value system, goal system, digital pedagogy.

2023 yilning 22 dekabrda Prezident Shavkat Mirziyoyev raisligida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishi bo'lib o'tgan va unda davlatimiz rahbari Ibrat domlani "Ulamo g'ayrat etkanda millat, albatta, isloh topur", degan hikmatli so'zlarini yodga olib, ziyolilar, nuroniylar, haj va umraga borib kelgan yurtdoshlarimiz ma'naviyat targ'ibotchisi bo'lishi, odamlarni yaxshilikka boshlashi kerakligini ta'kidlagan edi [1].

Adabiyotlar tahlili. Dunyo miqyosida siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy jarayonlar bo'yicha tadqiqot olib boruvchi Iqtisod va tinchlik xalqaro instituti terrorizmning global indeksini kuzatib boradi. Institut bergan ma'lumotga ko'ra, Afg'oniston, Iroq, Somali, Burkina-Faso, Suriya, Nigeriya, Mali, Niger va Pokistonda terrorizm xavfi yuqori hisoblanadi. Ayrim yoshlar bu baloning domiga aldanib, o'z oyog'i bilan yurib borishayapti. Bular – dunyoviy va diniy bilimlari sayoz, diniy tushunchalarning asl insonparvar mazmunini bilmaydigan yoshlar. Ana shunday yoshlar ekstremistik oqimlar hamda terrorchi tashkilot va guruhlarining aldoviga uchmoqda. Ularning o'ljasi aylanishmoqda [2]. Ular "hijrat", "jihod", "shahidlik", "xalifalikni tiklash" degan qutqulariga ko'r-ko'rona ishonishayapti. "To'xta. Sen kimsan? Nima uchun men sening yetovingga tushishim kerak? Nimaga meni jahannamga jo'natmoqchisan?", deb ko'zlariga tik qarab, mustahkam mafkuraviy immunitetni ko'rsata olishmayapti. Oqibatda, Suriya, Iroq, Afg'oniston va Pokistonga borib, vatangado bo'lishmoqda. Adashgan yoshlar aslida xalqaro terroristik tashkilotlar qo'lida o'yinchoq ekanini bilmayapti. Bilganida esa... kech bo'lmoqda.

O'zbekiston umumta'lim maktablarini bitirgan ayrim adashgan yoshlarning AQSH, Shvetsiya, Turkiya va boshqa chet davlatlarda terroristik harakatlar sodir etishlari, terrorizm va ekstremizm bilan bog'liq jinoyat sodir etib javobgarlikka tortilishlari haqidagi xabarlar Vatanimiz, xalqimiz, millatimiz, dinimiz nomiga dog' tushirmoqda. Davlatimizning insonparvar siyosati tufayli bir necha marta "Mehr" operatsiyalari o'tkazildi. Opa-singillarimiz, yosh bolalar O'zbekiston bag'riga, tinchlik diyoriga olib kelindi. Adashgan shaxslarni ma'naviy sog'lomhayotga qaytarishning barcha choralari amalga oshirilayapti. Lekin jazoni o'tab bo'lganidan keyin yana qayta jinoyatga qo'l urish uchrayapti. Bu esa terrorizm, ekstremizm va radikalizmga qarshi kurashni kuchaytirishimiz kerakligini anglatadi.

Ogoh bo'laylik!

Chet davlatlarda "hujra" sharoitida diniy ta'lim olayotgan ayrim voyaga yetmagan bolalar dunyoviy fanlarni o'zlashtirmasdan, xorijda noqonuniy diniy ta'lim bilan cheklanmoqda. Bu esa voyaga yetmagan, g'o'r, ota-onasi yoki qonuniy vakillar hamrohligisiz qolayotgan yosh bolalarimizning turli terroristik, ekstremistik, radikal g'oyalar ta'siriga tushish xavfini yuzaga keltirmoqda. Konstitutsiyamiz va qonunlarimizda O'zbekiston Respublikasining dunyoviy, huquqiy, suveren, demokratik, ijtimoiy davlat ekanligi mustahkamlab qo'yilgan. Bu esa ijtimoiy pedagogika nuqtayi nazaridan tarbiyaviy islohotlarning yangi ijtimoiy omillari tasnifini tuzishni va maktab o'quvchilarini mafkuraviy himoya qilishning yangilangan, ya'ni modernizatsiyalangan makrotizimini ifodalashni talab qiladi.

Zero mafkuraviy immunitet – shaxs-ijtimoiy guruh, millat, jamiyatni turli zararli g'oyaviy ta'sirlaridan himoya qilishga xizmat qiladigan g'oyaviy-nazariy qarashlar va qadriyatlar tizimi.

Tahlil va natijalar. Immunitet (lot, immunitas – ozod bo'lish, qutilish) tibbiy tushuncha bo'lib, organizmning doimiy ichki muayyanligini saqlashi, o'zini turli ta'sirlardan, tashqi infeksiyalar kirib kelishidan himoya qilishga qodir bo'lgan reaksiyalar majmui tushuniladi [3; 15-jild; 136-b.]. Sodda qilib aytganda, immunitet – kishi organizmining turli kasalliklardan himoya qila olish qobiliyatidir. Yuqoridan farqli o'laroq insonning umumiy immunitet tizimi tug'ma bo'lsa, mafkuraviy immunitetni shakllantirib borish zarur. Ikkinchidan, u har bir avlod uchun

o'ziga xos hususiyatga ega. Uchinchidan, immunitet tizimi shakllangandagina jamiyatda mafkuraviy daxlsizlikni ta'minlash mumkin. Mafkuraviy immunitet tizimining asosiy va birinchi elementi - bu, bilim. Ammo, bilimlarning turi ko'p. Buyuk davlatchilik shovinizmi yoki agressiv millatchilik mafkurasi tarafdorlari ham muayyan "bilimlar"ga tayanadilar, albatta. Shunday ekan, mafkuraviy immunitet tizimidagi bilimlar obyektiv bo'lishi, voqeylikni to'g'ri va to'liq aks ettirishi, inson ma'naviyatining boyitishi va jamiyat taraqqiyotiga xizmat qilishi lozim. Ular, o'z mohiyat e'tiboriga ko'ra, Vatan va millat manfaatlarini bilan uzviy bog'liq bo'lmog'i kerak. Mafkuraviy immunitet tizimining ikkinchi asosiy elementi ana shunday ilg'or bilimlar zahirida shakllanadigan baholar, qadriyatlar tizimidir. Zero, bilimlar qanchalik obyektiv va chuqur bo'lsa, uning zahirida yuzaga kelgan qadriyatlar ham shunchalik mustahkam bo'ladi. Bir so'z bilan aytganda, qadriyatlar tizimi mafkuraviy immunitetning imkoniyatlarini belgilab beradi va zararli g'oyalar yo'lida mustahkam qalqon bo'lib xizmat qiladi [4;184-b.]. Ammo bilimlar va qadriyatlar tizimi mavjudligining o'zi mafkuraviy immunitetning mohiyatini to'liq ifoda eta olmaydi. Zero, bu ikki element mafkuraviy immunitetning uchinchi muhim elementi, ya'ni ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy - ma'rifiy sohalaridagi maqsadlar tizimi bilan bog'liq. Ana shunday aniq maqsadlar tizimi bo'lmas ekan, inson, millat yoki jamiyat goh oshkora, goh pinhona mafkuraviy tazyiqlarga duchor bo'laveradi.

Mafkuraviy profilaktika – ijtimoiy institutlar tomonidan amalga oshiriladigan turli shakllardagi g'oyaviy - tarbiyaviy, ma'naviy - mafkuraviy ishlar majmui bo'lib, u butun g'oyaviy tarbiya tizimini qamrab oladi [5;53-b.]. Mafkuraviy profilaktika g'oyaviy bo'shliqni tugatish, mafkuraviy parokandalikni oldini olish yoki biror-bir hudud, qatlam, guruhni yot va zararli g'oyalar ta'siridan xalos qilish maqsadida amalga oshiriladi. Bunda g'oyaviy ta'sirning xilma-xil usul va yo'llaridan foydalaniladi, turli vositalar qo'llaniladi.

Mafkuraviy profilaktika tezkor va qisqa sur'atlarda yoki asta-sekin, bosqichma-bosqich amalga oshirilishi mumkin. Birinchi holatda zudlik bilan chora-tadbirlar qo'llash lozim bo'lsa, ikkinchi holda, doimiy va sobit qadamlilik bilan ish olib borish ko'proq natija beradi. Mafkuraviy immunitet tizimini shakllantirishda ham mafkuraviy profilaktikaning o'rni katta. Zero, u mohiyatan yot g'oyalarning kirib kelishining oldini olish va ularni yo'qotishga qaratilgan chora tadbirlarga tayanadi. Ta'lim-tarbiya va targ'ibot-tashviqot tizimi mafkuraviy profilaktikani amalga oshirishga yordam beradi. Sog'lom mafkurani xalq qalbi va ongiga singdirishga xizmat qiladigan ijtimoiy tuzilmalar, oila, maktab, mahalla, davlat va jamoat tashkilotlari ham unda o'z o'rniga ega. Shuningdek, Vatan, xalq manfaatlarini, do'stlik va birodarlikni, o'zaro hurmat va bag'pikenglikni targ'ib-tashviq etuvchi ertaklaru dostonlar, qo'shiqlaru raqslar, turli ko'rinish va mazmundagi ma'naviy-ma'rifiy tadbirlar mafkuraviy profilaktikani amalga oshirish shakllaridir.

Targ'ibot arab tilidan kirib kelgan so'z bo'lib, qiziqitirish, tarqatish ma'nolarini bildiradi. Targ'ibot tushunchasi keng ijtimoiy pedagogik ma'noda ta'lim-tarbiya bilan parallel, uyg'un mazmunga ega bo'lib, keng ma'noda, ijtimoiy faoliyatning alohida turi bo'lib, aholining ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish maqsadida ilmiy, badiiy, ijtimoiy-siyosiy, milliy g'oya va qadriyatlarni targ'ib etishni bildiradi. Targ'ibot jarayonida fan, san'at, ta'lim-tarbiya, sog'liqni saqlash, madaniy turmush tarzi, siyosiy va mafkura yutuqlari keng ommalashtiriladi, boyitiladi va yanada rivojlantiriladi. Targ'ibot tushunchasi tor ijtimoiy pedagogik ma'noda, mafkura va siyosatni targ'ib etishga qaratilgan faoliyat. Targ'ibot ilmiylik, konkretlik, obyektivlik, ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'liqlik tamoyillariga asoslanishi, tashkiliy jihatdan uyushgan bo'lishi lozim.

Ijtimoiy pedagogik ma'noda targ'ibot – biror g'oya, ta'limot, fikr va qarashni aholi o'rtasida tushuntirish, o'rgatish, keng yoyish, kishilar ongiga singdirishga qaratilgan, aniq maqsadni ko'zlab olib boriladigan tushuntirish va da'vatni, odamlarni muayyan bir vazifani hal qilish, ma'lum bir tartib-qoidalar asosida yashash, mehnat qilishga ma'naviy-ruhiy tayyorlash, g'oyaviy ruhlantirish, safarbar qilishni anglatadi. Buni milliy ijtimoiy tarbiyamiz tarixiga qarasak, amri ma'ruf va nahiy munkar misollarida ko'ramiz.

Mamlakatimizda Yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida ulkan islohotlar amalga oshirilmoqda. Har sohadagi sa'y-harakatlar farovonligimizning asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Ayni shu jarayonda hojilarimizning ijtimoiy pedagogik tashabbus va faoliyatini e'tirof etmoq lozim.

Binobarin, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2024 yilda muqaddas haj ibodatini amalga oshirayotgan hojilarimizga Musulmonlar idorasi raisi, muftiy shayx Nuriddin Xoliqnazar bilan telefon orqali muloqoti chog'ida shunday fikrlarni ta'kidladi. "O'zbekistonga qaytgach, hojilar jamiyatimizdagi mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlar tarbiyasi va oilalar totuvligida ibrat bo'lishlari lozim"[6]. Shunday ekan, dunyo qalqib turgan tahlikali zamonda har bir hoji, yoinki mo'min-musulmon deb ayta oladigan har bir kishi nafaqat oxirat, balki bugungi dunyo oldida ham o'zining insoniylik vazifasini sidqidildan ado etmog'i lozim bo'ladi. Demak, atrofidagi har bir odamning to'g'ri yo'ldan yurishi, o'zining Vatan oldida, yurt, xalq oldidagi daxldorlik mas'uliyatini his qilishi lozim. Binobarin, agar jamiyatning ba'zi bir a'zolari yomonlik qilsalaru, boshqalari ularga tomoshabin bo'lib tursalar, tanbeh berishni, to'g'ri yo'lga boshlashni hech kim o'z zimmasiga olmasa, unda jamiyat o'z yo'lini yo'qotishi muqarrar bo'ladi va bunga hojilar ham javobgar bo'ladilar. Illo, jamiyat a'zolarining xatolari uchun ularning umumiy azobga qo'yilishi Alloh tomonidan ham bir necha bor ta'kidlab aytilgan.

Nabiy sollallohu alayhi vasallam shunday deganlar: "Sizdan kim bir munkar ishni ko'rsa, qo'li bilan qaytarsin, agar qodir bo'lmasa, tili bilan qaytarsin, agar qodir bo'lmasa, dili bilan qaytarsin, ana o'sha eng zaif iymondir" (Imom Muslim rivoyatlari) [7; 672-b.]. I z o h: Hadisi sharifda ochiqcha qilinayotgan gunoh ishlarni har kim o'zi qodir bo'lganicha to'xtatishi lozimligi bayon qilingan. Kimdir qo'li bilan, kimdir tili bilan, bunga qodir bo'lmaganlar qalbi bilan yomon ko'rishi jamiyat a'zolarining burchidir.

"Munkar ish" deganda din, shariat tomonidan inkor qilingan yomon ish tushuniladi. Chin mo'min inson o'z jamiyatida bo'layotgan munkar ishni ko'rib-bilib turib, befarq qola olmaydi. Mo'min kishi munkar ishni ko'rganida uch holatdan birida bo'ladi, albatta [8, 45-b.]. Shuningdek, Payg'ambarimiz sollallohu alayhi vasallamning hadislaridan yana birida, sizlardan avvalgi ummatlarning halok bo'lish sabablaridan biri amri ma'ruf va nahi munkarni tark qilganliklari edi, deb aytiladi. Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, mehr-oqibat muhitini mustahkamlash, jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashish, yoshlar tarbiyasi va oilalar totuvligida ibrat bo'lishlari talab etilayotgan hojilarimiz bugun alohida jonbozlik ko'rsatishlari lozim bo'ladi.

Davlatimiz Rahbarining bevosita tavsiyalari va muqaddas haj ziyoratini ado etayotgan hojilarimizning: "Biz – o'zbekistonlik hojilar yurtimizga qaytganimizdan keyin Yangi O'zbekistonning fidoyisi bo'lib, ma'naviyat targ'ibotchisiga aylanamiz!" degan tashabbuslarining amaliy ifodasini ko'rsatish payti keldi. Binobarin, hukumatimiz tomonidan ziyoli hojilarimiz profilaktika inspektorlari bilan jinoyatchilikka moyil bo'lgan 240 mingta shaxs bilan yakka tartibda ishlashga jalb etilishi belgilandi hamda bu ishlar jamiyatimiz taraqqiyoti va xalqimiz ma'naviy kamolotiga katta xizmat qilishi, shubhasiz.

Barchamizga ayonki, bugun mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar havas qilsa arzigulik va Alloh berayotgan ne'matlarga har qancha shukrini keltirsak, kamdek go'yo. Lekin oramizda shunday shaxslar borki, ular tomonidan sodir etilayotgan jinoyatlar noshukrlikdan boshqa narsa emas. To'g'ri, inson fazilatlardan ham, illatlardan ham xoli emas. Inson tabiatidagi fazilatlar farovonlik keltirsa, illatlarning mavjudligi esa, jamiyat uchun zarar keltiradi. Chunki bu illatlar bora-bora odatga, tabiiylikka aylanib qoladi va kishini jinoyat sari yetaklaydi. Bunga qarshi kurashmoq har bir mo'minning vazifasidir. Ana shunday illatlarning oldini olish uchun hojilarimizdan bugun alohida fidoyilik talab etiladi.

Masalaga ijtimoiy pedagogik nuqtayi nazardan, ya'ni ilmiy yondoshsak, bugungi maktab tarbiyasi juda ko'p yangi omillarga ega bo'lganini ko'rish mumkin. Birgina tashviqotni oladigan

bo'lsak, u odamlarga ta'sir o'tkazishning targ'ibotdanda faolroq darajasi ekanligini ko'rish mumkin. Tashviqot maqsadida yozma va og'zaki qilinadigan ishlar; undash, da'vat qilish, shu asosda ularning qalbida zavq-shavq, muhabbat yoki nafrat uyg'otishni o'z ichiga oladi. Tashviqot lot. agitation – harakatga keltirmoq, degan fe'lni anglatib, mahalla, ota-onalar, pedagogik jamoa, yoki ma'lum bir ijtimoiy guruh yoki ommani ko'zlangan maqsad sari faollikka undaydigan faol targ'ibot faoliyatidir. Bugungi kunda tashviqotning virtual, og'zaki, nashriy va audio-vizual turlari mavjud bo'lib, u g'oyat ta'sirchan ijtimoiy-pedagogik targ'ibot, ta'lim vositasi hisoblanadi.

Barcha zamon va makonlarda ham har qanday o'z xalqi kelajagini o'ylagan mamlakatda aholi davlat tomonidan olib borilayotgan ta'lim va tarbiya sohasidagi islohatlar, o'zgarishlardan ma'lum darajada xabardor qilib borilgan. Bu esa jamiyatning pedagogik madaniyatini ko'tarish, umummilliy tarbiyaviy maqsadlar yo'lida safarbarlikni ta'minlab, davlat va jamiyat birligiga erishishdek ezgu maqsadlarga xizmat qilgan.

Xulosalar. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, Oliy ta'lim va innovatsion texnologiyalar vazirligi hamda O'zbekiston Mahalla uyushmasining O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi huzuridagi «Oila – mahalla - ta'lim muassasasi» hamkorligi Jamoat kengashi Nizomining zamon talablari asosidagi yangi tahririni ishlab chiqish va hayotga joriy qilish;

ajdodlarimizning milliy tarbiya tajribasi namunalarini saqlash, asrab-avaylash va bugungi kunda yosh avlodlarni tarbiyalash jarayoniga joriy qilishni ilmiy ta'minlash maqsadida “O'zbek pedagogikasi” nomli ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-ommabop o'quv qo'llanmasini tayyorlash va mahallalar, ta'lim muassasalariga tarqatish;

ustoz-murabbiylarni, pedagog-o'qituvchilarni, ota-onalarni, mahalla yoshlar yetakchilarini milliy tarbiya nazariyasi va metodlari bilan qurollantirish;

boy milliy tarbiya merosimizga bag'ishlangan ilmiy-pedagogik ishlanmalar ishlab chiqish, ularni ta'lim va tarbiya jarayoniga samarali tatbiq etish uchun har bir mahallada ma'naviy-axloqiy tarbiyaviy muhit yaratish;

“Mahalla – ta'lim muassasasi - oila”ning yosh avlodi ma'naviy-axloqiy tarbiyalashning ilmiy asoslangan hamkorlik texnologiyasini ishlab chiqish va joriy qilish;

ma'naviy-axloqiy tarbiya jarayonida uzluksizlik, uzviylik tamoyillariga tayangan holda yoshlarda Vatanga sadoqat, tadbirkorlik, irodalilik, mafkuraviy immunitet, mehr-oqibatlilik, mas'uliyatlilik, bag'rikenglik, huquqiy madaniyat, innovatsion fikrlash, mehnatsevarlik kabi tayanch kompetensiyalarni bolalikdan boshlab bosqichma-bosqich shakllantirish;

“Ma'naviy-axloqiy tarbiyani amalga oshirishda ota-ona, tarbiyachi, o'qituvchi, uzluksiz ta'lim muassasalari, ma'naviyat bo'limlari va mahalla jamoatchiligining hamkorlik Konsepsiyasi”ni ishlab chiqish va hayotga joriy etish;

Raqamli pedagogika, telegram resurslaridan foydalangan holda aholining farzand tarbiyasi bo'yicha pedagogik madaniyatini oshirish, ota-onalarni bolalar tarbiyasining jahon tajribasida sinovdan o'tgan samarali pedagogik texnologiyalari, usullari va amalga oshirish shakllari bilan muntazam tanishtirib borish;

ommaviy axborot vositalari, shu jumladan, Internet jahon axborot tarmog'i orqali tarqatilayotgan g'arazli axborotlar, odob-axloqni yemiruvchi illatlar, yoshlarni zalolatga boshlovchi “ommaviy madaniyat”, radikalizm, buzg'unchi g'oyalarga karshi mafkuraviy immunitetini kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. <https://president.uz/uz/lists/view/6941>
2. Measuring The Impact of Terrorism. Institute for Economics & Peace. Global Terrorism Index 2025: Measuring The Impact of Terrorism, Sydney, March 2025. <http://visionofhumanity.org/resources>
3. O'zbekiston Milliy Ensiklopediyasi, 15-jild. «O'zbekiston milliy ensiklopediyasi» Davlat

ilmiy nashriyoti.-T.2008. 136-b.

4. Milliy istiqlol g'oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar. Nazarov Q. Toshkent.: Yangi asr avlodi. 2001. -B.184.
5. Jabborov X.X. Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari. Psix. fanlari doktori (DSc) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. –T.: 2023. –53 b.
6. Mirziyoyev Sh. Prezident O'zbekistonlik hojilar holidan xabar oldi. <https://president.uz/uz/lists/view/7285>– 45.
7. Muhammad Sodiq Muhammad Yusuf va b. To'plam. «Oltin silsila – Sahihi Muslim». 1-juz. «HILOL NASHR». 2024. B-672.
8. Yangi O'zbekistonning fidoyisi bo'lib, ma'naviyat targ'ibotchisiga aylanamiz! [Matn] / Tuzuvchilar: O.Davlatov, M.Quronov, B.Qodirov, Sh.To'rayev, S.G'afurov, M.Musayev, K.To'rayev, X.Serobov. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2024. B-45.